



## NAMANGAN STATE UNIVERSITY

**Namangan davlat universitetida aholining turli qatlamlari o'rtasida turli yo'nalishlarda o'quv kurslari tashkil etilib kelinadi. Bu boradagi asosiy yo'nalishlar quyidagilarni qamrab oladi:**

- Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun to'garaklar tashkil etish;
- O'rta yoshdagi, oliy ma'lumotli mutaxassislarni pedagogik faoliyat bo'yicha qayta tayyorlash;
- Bitiruvchi kurs talabalari uchun tadbirkorlik sohasida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha amaliy treninglar tashkil etish;
- Tadbirkorlar huquqiy savodxonligini oshirish, ularni ehtimolli sud-prosessual jarayonlariga tayyorlash;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro standartlar asosida yetishtirish va sotish bo'yicha maslahat kurslarini o'tkazish.

**1. 2022 yilda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun to'garaklar tashkil etish yo'nalishi bo'yicha** Namangan viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami **132 ta** to'garaklarda **3603 nafar** o'quvchilar uchun oliy o'quv yurtlari kirish test sinovlariga tayyorlov kurslari tashkil etilgan.

Namangan shahar, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, To'raqo'rg'on tumanlarida o'rta umumiy ta'lim maktablarida bitiruvchi sinflar uchun "Raqqamli savodxonlik" kursi tashkil etildi. Kurslar Namangan shahrida **75 ta**, Yangiqo'rg'on tumanida **61 ta**, Kosonsoy tumanida **40 ta**, To'raqo'rg'on tumanida **58 ta**, jami **234 ta** maktablarda tashkil etilgan. Kurs yakunida jami **5675 nafar** maktab bitiruvchilariga sertifikatlar taqdim etilgan.

2022 yilda Namangan 2-tibbiyot, Chust tibbiyot, Pop tibbiyot kollejlari **16 marta** ("Men" mavzusida trening, "Tibbiyotda innovasion yondashuvlar", "Sport pedagogik maxoratini oshirish" "Biologik faol birikmalarning kalamush bosh miyasi sinaptosoma [Ca<sup>2+</sup>] dinamikasining o'zgarishiga ta'sirini o'rganish" "Turli gemodinamik tiplarga xos yosh futbolchilarda kardiorespirator tizimning jismoniy yuklamalarga adaptatsiyalanish xususiyatlari" mavzularida mahorat darslari, o'qituvchilar uchun "Tibbiyot kasbi etikasi, deontologiyasi", "Tibbiy diagnostika, bioetika", "O'quvchilar tibbiy-fiziologik rivojlanishini gigenik baholash" «Axborot-texnologik muhitda talabalarni nomofobik-ruxiy zararlanishdan himoyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish», «STEAM texnologiyasining MTTlarda qo'llanilishi», «Dars shakllarini sifatli tashkil etish», «Zamonaviy pedagog: muammolar, yechimlar va istiqbollar...» mavzularida davra suhbatlari) seminar-treninglar, mahorat darslari va davra suhbatlari tashkil etilgan.

**2. O'rta yoshdagi, oliy ma'lumotli mutaxassislarni pedagogik faoliyat bo'yicha qayta tayyorlash bo'yicha** 2022 yilda universitetda matematika, informatika, tarix, biologiya, boshlang'ich ta'lim mutaxassisliklari bo'yicha qayta tayyorlov kurslari tashkil etilgan.

**3. Bitiruvchi kurs talabalari uchun tadbirkorlik sohasida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha** amaliy treninglar tashkil etish bo'yicha Namangan viloyatida eng taniqli bo'lgan 7 nafar tadbirkorlar ishtirokida 46 ta guruhlar uchun master-klasslar o'tkazilgan, ularga jami **1028 nafar** bitiruvchilar jalb etilgan.

**4. Tadbirkorlar huquqiy savodxonligini oshirish, ularni ehtimolli sud-prosessual jarayonlariga tayyorlash bo'yicha** universitetda 2021 yildan "Yuridik klinika" tashkil etilgan bo'lib, mazkur klinikada 2021 yilda 32 nafar, 2022 yilda 47 nafar tadbirkorlarga yuridik maslahat kurslari tashkil etilgan.

**5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro standartlar asosida yetishtirish va sotish bo'yicha maslahat kurslarini o'tkazish bo'yicha** PZ20170929525-"Namangan viloyatida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotishning marketing strategiyasini ishlab chiqish" grant loyihasi doirasida Namangan viloyati fermer xo'jaliklari rahbarlari uchun tashkil etilgan "Agromarketing" o'quv kurslarida 2020 yilda 43 nafar, 2021 yil 50 nafar va 2022 yilda 35 nafar fermerlar ishtirok etishgan.